

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti**

Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar kafedrasи

o'qituvchisi Kudratov Alisher Toshpulatovichning Veterinariya profilaktikasi va
davolash fakulteti 1-bosqich 106-guruh talabalari uchun “Sohada axborot
kommunikatsiya texnologiyalari” fanidan “Taqdimotli axborotlarni qayta ishlash
texnologiyalari. Microsoft PowerPoint” mavzusidagi

AMALIY MASHG'ULOT ISHLANMASI

Samarqand 2025

Tuzuvchi:

A.Kudratov - Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Taqrizchilar:

- H.Akbarov** – Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti, “Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, PhD
- X.Urdushev** – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti

**“Taqdimotli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari. Microsoft PowerPoint”
mavzusi bo'yicha ma'ruzani olib borish texnologiyasi**

| | |
|--|---|
| <i>Talabalar soni</i> 19 | 2 soat |
| <i>Mashg'ulot shakli</i> | Amaliy |
| <i>Amaliy mashg'ulot rejasি</i> | <ol style="list-style-type: none"> 1. PowerPoint taqdimot ilovasining imkoniyatlari 2. PowerPoint'da sohaga doir taqdimotlar tuzish |
| <i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i> | Mavzu bo'yicha ko'nikmalarini hosil qilish. |
| <i>Pedagogik vazifalar:</i> | <i>O'quv faoliyati natijalari:</i> |
| - PowerPoint taqdimot ilovasini tushintirish; - PowerPoint taqdimot ilovasida ishlashni urganadi; - PowerPoint taqdimot ilovasida tadqimotlarni tayyorlash ko'nikmasi hosil bo'ladi; | - PowerPoint taqdimot ilovasi bilan tanishadi; - PowerPoint taqdimot ilovasida ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi; - PowerPoint taqdimot ilovasida tadqimotlarni tayyorlash ko'nikmasi hosil bo'ladi; |
| <i>O'qitish usullari</i> | namoyish, aqliy hujum, insert texnikasi. |
| <i>O'qitish vositalari</i> | Doska, videoproyektor, topshiriqlar, tarqatma materiallar. |
| <i>O'qitish shakllari</i> | Frontal, kollektiv, guruhda ishlash. |
| <i>O'qitish sharoiti</i> <i>Monitoring va baholash</i> | Videoproyektor bilan ta'minlangan auditoriya. Kuzatish, og'zaki baholash, savol- javob, test savollari. |

| T/r | Mashg'ulot bosqichlari | Ajratilgan vaqt | Mashg'ulot mazmuni | Ta'lim metodlari | Ta'lim vositalari |
|-----|----------------------------------|-----------------|--|--------------------------------------|---------------------------|
| 1. | Tashkiliy qism | 5 | Salomlashish. Yo'qlama qilish. Guruh tayyorgarligini tekshirish, xona tozalagini tekshirish | Kuzatuv | Elektron doska, kompyuter |
| 2. | Kirish qismi (motivasiya) | 10 | O'quvchilarga Power point ilovasi haqida tushunchalar berish. | Baholash mezoni Insert | Electron doska, kompyuter |
| 3. | Yangi mavzuni bayoni | 30 | Taqdimotli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari. Microsoft PowerPoint | kompyuter | Elektron doska, kompyuter |
| 4. | Mustahkamlash (qo'llash) | 30 | Oquvchilarga yangi mavzu bo'yicha vazifalar topshirilib. Vazifalar asosida mavzu mustaxkamlanadi, o'quvchilar baholanadi. | mavzuni mustaxkamlash uchun savollar | Elektron doska, kompyuter |
| 5. | Yakuniy qism | 5 | Uyga vazifa: Bugungi yangi mavzuni mustahkamlash | | |

5-amaliy mashg‘ulot: Taqdimotli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari. Microsoft PowerPoint

Reja:

- 1. PowerPoint taqdimot ilovasining imkoniyatlari**
- 2. PowerPoint'da sohaga doir taqdimotlar tuzish**

PowerPoint taqdimot ilovasining imkoniyatlari.

Microsoft PowerPoint ilovasi matnlar, rasmlar, fotosuratlar, videolar, Анимациялар va boshqa elementlarni o‘z ichiga olgan samarali taqdimotlarni yaratish uchun ishlatiladi.

Taqdimot (lotincha praesento – taqdimot, inglizcha present – taqdim etish) – ommaviy chiqishlar uchun mo‘ljallangan illustrativ materiallarga ega elektron hujjat.

PowerPoint taqdimot fayllari slayd (kadr)lardan iborat.

Har bir slaydda har xil turdagи axborotlar bo‘lishi mumkin - matn, grafik (chizmalar, diagrammalar va boshqalar), jadval, audio, videokliplar va boshqalar.

Taqdimot: slaydlarini qog‘ozga chop etish; har bir slaydga eslatma qo‘shish; faylda saqlash; maxsus effektlar qo‘shish va taqdimotni kompyuter ekranida yoki kompyuter proektori yordamida auditoriya katta ekranda namoyish qilish.

Taqdimot shaxsan yoki Internetda masofadan turib taqdim etilishi yoki boshqa foydalanuvchilar bilan bo‘lishish mumkin. Bu ma’ruzachiga chiqishlar davomida tinglovchilarga har qanday turdagи ma’lumotlarni aniq va sodda tarzda yetkazish imkonini beradi, bu: loyiha g‘oyalari, kurs ishi yoki yakuniy malakaviy ishlar natijalari, ilmiy tadqiqotlar, tezislар, ma’ruzalar yoki ma’ruzalar materiallari va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Elektron taqdimotning afzallikkлari quyidagilardan iborat: taqdimot ketma-ketligi, slaydlarni namoyish etish tinglovchilar e’tiborini jalb qilishni osonlashtiradi.

Multimedia effektlari: taqdimot slaydlari shunchaki rasm emas, u animatsiya elementlari, audio va videoqismlarini o‘z ichiga olishi mumkin.


Multimedia taqdimoti - bu texnik vositalar va dasturiy ta’midotdan foydalangan holda materiallar tayyorlash. Multimedia taqdimotining afzallikkлari shundaki, u bir vaqtning o‘zida grafik, matn va audiovizual axborotdan foydalanish imkonini beradi. Matn, grafik, videova audioni almashtirish yoki birlashtirish sizga yangi materialni eng vizual va oson tushunarli shaklda etkazish imkonini beradi.

Vizualizatsiya (ko‘rish) multimedia taqdimotlaridan foydalanishning asosiy argumentidir va u eng yaxshi umumiy ibora bilan ifodalanadi: "Yuz marta eshitishdan ko‘ra, bir marta ko‘rmoq afzaldir".

Microsoft PowerPoint ilovasi fayli kompyuter xotirasida *.pptx kengaytmasi bilan saqlanadi.

Microsoft PowerPoint ilovasi yuklanganda yangi ochilgan taqdimotga **Презентация1**, **Презентация2**,... kabi nomlar avtomatik tarzda beriladi.

Qoidaga ko‘ra PowerPoint ilovasi **Пуск** tugmasi orqali yuklanadi (1.5.1-rasm.). Yangi taqdimot tuzish uchun muloqot oynasidan **Пустая презентация** (Bo‘sh taqdimot) maketi sichqoncha ko‘rsatkichi bilan bosiladi. Shuningdek, PowerPoint ilovasi foydalanuvchilarga taqdimot shablonlarini taqdim etadi. Bu shablonlar tematik mavzularga ajratilgan bo‘lib, yangi shablonlar Internet tarmog‘idan qidiruv orqali amalga oshiriladi.



1.5.1-rasm.

PowerPoint'da sohaga doir taqdimotlar tuzish


1.5.1-vazifa. PowerPoint ilovasida **Пустая презентация** (Bo‘sh taqdimot) faylini tuzing va uni kompyuter xotirasida tegishli nom bilan rasmiylashtiring.

Bajarish usuli.

1) **Пуск** tugmasini faollashtiring. Asosiy menyuda taqdim qilingan ilovalar ro‘yxatidan **PowerPoint...** tanlang va sichqoncha ko‘rsatkichi bilan faollashtiring;

2) Monitorga yuklangan PowerPoint oynasini o‘ng tomondagi **Пустая презентация** (Bo‘sh taqdimot) ni sichqoncha ko‘rsatkichi bilan faollashtiring. Natijada **Презентация-PowerPoint** nomli taqdimot oynasi yuklanadi (1.5.2-rasm.).

3) Taqdimot faylini kompyuter xotirasida tegishli nom bilan rasmiylashtiramiz. **Файл** menyusidan **Сохранить** buyrug‘ini beramiz. Oynaga ochilgan **Сохранить как** muloqat oynasidan **Этот компьютер** yoki **Обзор** papkalarini faollashtiramiz. Masalan **Обзор** papkasi faollashtirilsa foydalanuvchiga **Документы** papkasi faol bo‘lgan **Сохранение документа** dialog oynasi ochiladi. Bu oynani **Тип файла:** darchasiga fayl nomi kiritiladi, masalan 101.3.Abdullaeva R. kabi va **Сохранить** tugmasi bosiladi (1.5.3-rasm.).




1.5.2-rasm.

2)

Monitoraga yuklangan PowerPoint oynasini o‘ng tomondagi **Пустая презентация** (Bo‘sish taqdimot) ni sichqoncha ko‘rsatkichi bilan faollashtiring. Natijada **Презентация-PowerPoint** nomli taqdimot oynasi yuklanadi (1.5.2-rasm.).

3) Taqdimot faylini kompyuter xotirasida tegishli nom bilan rasmiylashtiramiz. **Файл** menyusidan **Сохранить** buyrug‘ini beramiz. Oynaga ochilgan **Сохранить как** muloqat oynasidan **Этот компьютер** yoki **Обзор** papkalarini faollashtiramiz. Masalan **Обзор** papkasi faollashtirilsa foydalanuvchiga **Документы** papkasi faol bo‘lgan **Сохранение документа** dialog oynasi ochiladi. Bu oynani **Тип файла:** darchasiga fayl nomi kiritiladi, masalan 101.3.Abdullaeva R. kabi va **Сохранить**



1.5.3-rasm.

tugmasi bosiladi (1.5.3-rasm.).

Natijada ilova oynasi 1.5.4-rasmda keltirilgan ko‘rinishni oladi. Illova oynasini sarlavha satri markazida

101.3.Abdullaeva R. – PowerPoint fayl nomi yoziladi (1.5.4-rasm.).


1.5.2-vazifa. Taqdimotga slaydlar qo‘shish va slayd **Макет’ларни** tanlash. Kontekst menuy buyruqlaridan foydalanish.

Bajarish usuli.


1) **Главная** vkladkasidan **Создать слайд** (Slayd tuzish) buyrug‘ini bering va undan **Только заголовок** (Faqat sarlavha) **Макет’ni** tanlang. Keyin bu ishni **Пустой слайд**(Bo‘sh slayd) Maket'i ni uchun amalga oshiring (1.5.5-rasm.). Agar tuzilgan slaydlarni Maket'i ni o‘zgartirish zaruriyati yuzaga kelsa bu jarayon **Главная** vkladkasini **Макет** buyrug‘i bilan amalga oshiriladi. Bu ishni amalga oshirish uchun:

- tegishli slayd sichqoncha bilan faollashtiriladi;
- **Главная** vkladkasidan **Макет** buyrug‘i bilan ochiladigan Maketlar ro‘yxatidan tegishlisi sichqoncha ko‘rsatkichi bilan tanlanadi.

2) Taqdimotga slayd qo‘shish uchun: oynani chap tomondagi panelidan tegishli slayd faollashtirilib, kontekst menyudan **Создать слайд** buyrug‘i beriladi. Agar kontekst menyudan **Дублировать слайд** buyrug‘i berilsa taqdimotga joriy slaydnинг nusxasi o‘rnataladi. Bu ishni kontekst menyuning **Копировать-Вставить** buyrug‘lari bilan ham amalga oshirish mumkin.



1.5.4-rasm.



1.5.5-rasm.

1.5.3-vazifa. Taqdimot slaydlariga matnlar yozish, ob'ektlar o'rnatish.

Topshiriq va ko'rsatmalar.

Birinchi slaydni faolashtiring:

1.1) Slaydni “**Заголовок слайда**” (Slayd sarlavhasi) “Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti” matnini yozing.

Подзаголовок слайда (Slayd sarlavha ostisi) maydoniga “Veterinariya meditsinasi yo'nalishi 101 guruh talabasi Abdullaeva R.” matnini yozing.

1.2) **Главная** vkladkasini **Шрифт** buyrug'i bilan ochiladigan shriftlar ro'yxatidan sizga maqbul bo'lgan (masalan, **Cambria Math**) shrift turini tanlang.

1.3) **Главная** vkladkasini **Размер шрифта** buyrug'i bilan tegishli shrift o'lchamlarini o'rnatung.

1.4) **Главная** vkladkasini **цвет шрифта (shrift rangi)** buyrug'i bilan slayd harf va simvollari uchun rang tanlang.

1.5) **Заголовок слайда** va **Подзаголовок слайда** maydonlari o'lchamlarini gorizontal va vertikali kengliklari o'zgartiring, siljiting. Chiroqli va qulay ko'rinishga keltiring (1.5.6-rasm.).

Ikkinci slaydni faolashtiring:

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Veterinariya meditsinasi yo'nalishi 101 guruh talabasi
Abdullaeva R.

1.5.6-rasm.

2.1) Slaydni **Заголовок слайда** (Slayd sarlavhasi) maydoniga quyidagi matnni yozing: “Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fanidan HEMIS platformasiga joylashtirilgan amaliy mashg'ulotlar ro'yxati”.

2.2) Slaydga to'rtburchak ko'rinishdagi figurani o'rnatung. Buning uchun **Вставка** vkladkasidan **Фигуры** buyrug'ini bering. Oynaga ochilgan figuralar tasvirlaridan **Прямоугольник** (To'g'ri to'rtburchak) figurasini sichqoncha bilan ajratilsa, sichqoncha 'rsatkichi "+" kabi ko'rinishini oladi. Slaydning figura o'rnatiladigan sathini aniqlab "+" belgili sichqoncha ko'rsatkichni harakatlantirilsa, tanlangan figura slaydga o'rnatiladi.

2.3) O'rnatilgan figuraga quyidagi mavzular ro'yxatini yozing:

1. Axborot va uning turlarii, o'lchov birlıkları
2. Matnli va sonli axborotlarni kodlash
3. Matnli axborotlarni qayta ishslash texnologiyalari. Microsoft Word
4. Jadvalli axborotlarni qayta ishslash texnologiyalari. Microsoft Excel
5. Taqdimotli axborotlarni qayta ishslash texnologiyalari. Microsoft PowerPoint

6. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari. Microsoft Access
7. Korrelyasion-regression masalalar
8. Kompyuter tarmoqlari
9. Internet xizmatlari
10. Axborot xavfsizligi

Slaydga o'rnatilagan figuraga matn yozish uchun, u faollashtiriladi va kontekst menyudan "**Изменить текст**"-matnni o'zgartirish (qo'shish) buyrug'i beriladi.

Tanlangan figura ichiga yuqorida keltirilgan matn kiritiladi. Slayd sathida: figura kengliklari, siljitimish va joylashtirishlar, harflar uchun shriftlar, shrift o'lchamlari va ranglar o'rnatiladi. Figura faollashtirilsa lenta satriga "**Формат**" nomli vkladka qo'shiladi. "**Формат**" vkladkasini **Стили фигур** buyrug'iga tegishli figuralardan kerakli ranglar tanlanadi. Natijada 2-slayd 1.5.7-rasmda keltirilgan kabi ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

1.5.7-rasm.

Uchinchi slaydni faollashtiring:

Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fanidan HEMIS platformasiga joylashtirilgan amaliy mashg'ulotlar ro'yxati


1. Axborot va uning turlarii, o'lchov birliklari
2. Matnli va sonli axborotlarni kodlash
3. Matnli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari. Microsoft Word
4. Jadvalli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari. Microsoft Excel
5. Taqdimotli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari. Microsoft PowerPoint
6. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari. Microsoft Access
7. Korrelyasion-regression masalalar
8. Kompyuter tarmoqlari
9. Internet xizmatlari
10. Axborot xavfsizligi

3.1) **Вставка** vkladkasidan **SmartART** buyrug'i bilan smart figuralarni slaydga o'rnatishing.


Вставка vkladkasidan **SmartART** buyrug'i berilsa **Выбор рисунка SmartART** (**SmartART** rasmini tanlash) dialog oynasi ochiladi (1.5.8-rasm.). Bu oynani chap tomonagi paneldan **Список**'ni faolashtirilib ochiladigan figurali tasvirlardan **Вертикальный список** (Vertikal ro'yxat) tanlanib, **OK** tugmasi bosilsa, tanlangan figura slaydga o'rnatiladi (1.5.9-rasm.).

Figurani [Текст] yozuvli uchta maydoniga “Matnli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari. Microsoft Word”, “Jadvalli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari. Microsoft Excel” va “Taqdimotli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari. Microsoft PowerPoint” matnlari yozilsa slayd figuralari 1.5.10-rasmda keltirilgan ko‘rinishni oladi.

3.2) Slaydga o‘rnatilgan figuralarni ko‘rnishlarini o‘zartirish mumkin. Buning



1.5.9-rasm.



1.5.10-rasm.

uchun slaydga joylashtirilgan smart figura faolashtiriladi va lenta satriga qo‘shiladigan (1.5.11-rasm.): **Конструктор** vkladkasini **Изменить цвета** buyrug‘i bilan taqdim qilinadigan ranglar palitrasи bilan figuraning ranglari o‘zgartiriladi;


Конструктор vkladkasini **Stili SmartART** guruhi bilan taqdim qilinadigan figuralarning turli ko‘rinishlaridan birini tanlash mumkin (1.5.11-rasm.). Natijada slaydga joylashtirilgan figura 1.5.12-rasmda keltirilgan ko‘rinishga ega bo‘ladi.

1.5.4-vazifa. Taqdimot slaydlariga dizaynlar o‘rnatish.

Taqdimot dizayni deganda, barcha slaydlar uchun dizaynni yagona ko‘rinishini tanlash tushuniladi. Tanlangan dizayn bilan taqdimotning barcha

slaydlarda fon, sarlavha, matn va boshqa ob'ektlar yaratiladi. Har bir taqdimot dizayni alohida nomga ega bo'ladi. Masalan, **Аспект**, **Атлас**, **Интеграл** va h.k. kabi (1.5.13- rasm.).

Taqdimotga dizayn o'rnatish:



1.5.11-rasm.

- 1) Taqdimot faollashtiriladi. **Вставка** vkladkasidan **Дизайн** buyrug'i beriladi;
- 2) Lentada ochilgan oynada Дизайн maketi taqdim etiladi. Bu maketlar ustida sichqoncha ko'rsatkichi yurgizilganda, mos ravishda taqdimot slaydlari ularga mos ravishda o'zgaradi. Masalan, dizaynni **Аспект** turi tanlansa joriy taqdimot slaydlari



1.5.12-rasm.

